

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
XALQARO FESTIVALLAR DIREKSIYASI
O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI
AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentabrdagi “Lazgi” xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-4843-son qarori ijrosini ta’minlash, o‘zbek milliy raqs san’atining umumbashariy hamda milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi darajasini baholash va ilmiy jihatdan asoslash maqsadida, **2026-yil 27-aprel kuni** Xiva shahrida o‘zbek va jahon raqs san’ati tadqiqiga bag‘ishlangan **“Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san’ati: an’ana va umumbashariy qadriyatlar”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Konferensiya o‘tkaziladigan sana: 2026-yil 27-aprel.

Konferensiya o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati, Xiva shahri.

Konferensiyaning maqsadi: “Xorazm Lazgi raqsi” san’ati hamda boshqa xalqlarning azaliy an’analarini saqlash va rivojlantirish, raqs san’atining turli yo‘nalishlarida tajriba almashish, raqs san’ati orqali xalqaro miqyosda do‘stlik va qardoshlikni hamda ijodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash.

Konferensiyada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sho‘balar tashkil qilinadi:

1. Xorazm “Lazgi” raqsi: tarixiy-falsafiy, milliy-madaniy omillar
2. Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati taraqqiyoti

Konferensiyada xorijiy davlatlar va respublikamiz oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, magistrilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirok etishlari mumkin.

Ishtirok etish shakli: offlayn, onlayn.

Konferensiyaning ishchi tillari: o‘zbek, rus, ingliz.

Konferensiyada ishtirok etish uchun ariza va maqolalar tashkiliy qo‘mitaga 2026-yil 15-martga qadar yuborilishi kerak. (diana.abdulova@mail.ru elektron pochta) yoki telegramm manzil: +99893 512-45-95 Abdulova Diana Ulfatovna).

Maqola rasmiylashtirish talablari:

1. Matn hajmi – 5-7 betdan ko‘p bo‘lmasligi talab etiladi.

2. Microsoft Word formatida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattalikda, 1,5 intervalda, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm joy qoldirib yoziladi, A4 formatda, defis qo‘yilmaydi, sahifalar raqamlanmaydi.

Muallifning familiyasi, ismi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi, tashkilot, shahar, mamlakat, maqola yozilgan tilda (o‘ng tomonda) ko‘rsatiladi.

Maqola sarlavhasi katta harflarda, qalin shrift bilan yoziladi.

Sarlavhadan keyin 3-4 qatorli annotatsiya va kalit so‘zlar (8 ta so‘zdan oshmasligi kerak) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Matnda havola an’anaviy shaklda belgilanadi. Adabiyotlar ro‘yxati (8 tadan kam bo‘lmasligi kerak) maqola oxirida beriladi.

Materiallarning mazmuni, saviyasi va keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir.

Taqdim etilgan maqola avval boshqa nashrlarda chop etilmagan bo‘lishi kerak. Konferensiya talabiga mos kelmagan va ko‘rsatilgan muddatdan keyin yuborilgan maqolalar qabul qilinmaydi.

Ishtirokchining arizasi:

Familiya, ismi, otasining ismi (to 'liq)	
Ish joyi (qisqartirmasdan to 'liq yoziladi)	
Lavozimi	
Ilmiy daraja, ilmiy unvon, faxriy unvon	
Telyefon raqam (+ WhatsApp, Telegram)	
E-mail	
Konferensiyada ishtirok etish shakli (offlayn/onlayn)	
Ma'ruza yoki maqola nomi (qo 'shtirnoqsiz)	